

PEDAGOGIKA

ilmiy-nazariy va metodik jurnal

4/2019

VIRTUAL MUZEYLARNING TA'LIM JARAYONIDAGI O'RNI

Rezume. Maqolada virtual muzeylarning o'quv jarayonidagi o'rne, muzey pedagogikasi haqida qarashlar, virtual-ta'limiy muzeylarning afzalliklari hamda ularni ta'lim jarayonida qo'llash bo'yicha tadqiqot natijalari keltirilgan.

Tayanch so'zlar: virtual muzey, muzey pedagogikasi, virtual-ta'limiy muzey, virtual sayohat, multimediali muzey, 3D-muzey.



R. Atamuratov*

Abstract. This article reveals the role of museums in educational process, different approaches on museum pedagogy, advantages of virtual-educational museums and the findings of their implication in education.

Key words: virtual museum, museum pedagogy, virtual-educational museum, virtual travel, multimedia museum, web museum.

Резюме. В данной статье приведены результаты исследований применения в системе образования и возможности виртуальных музеев, значение виртуальных музеев, размышления о музейной педагогике.

Ключевые слова: виртуальный музей, музейная педагогика, виртуально-образовательный музей, виртуальное путешествие, мультимедийный музей, 3D-музей.

Bugungi zamonaviy axborot texnologiyalari asrida tarixiy-madaniy merosimizni tiklash, saqlash eng muhim vazifalardan biri sifatida belgilangan, bu esa har bir xalqning o'z tarixi va madaniyatini chuqurroq anglab yetish va yosh avlodlarga yetkazish imkonini bermoqda. Tarixiy-madaniy merosni nafaqat asrash, balki ularni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida turli usullarda taqdim etish mumkin. Bunga misol

*Atamuratov Rasuljon Kadirjonovich, Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU o'qituvchisi.
E-mail: rasul_atamuratov@mail.ru

qilib internet tarmog'iga joylashtiriladigan virtual-ta'limiy muzeylarni misol sifatida keltirishimiz mumkin.

Virtual-ta'limiy muzeylar nima va u nima uchun kerak kabi savollar tug'iladi. Dunyo tajribalaridan kelib shuni aytish mumkinki, muzeylar o'quvchilarni tarbiyalash jarayonida bebaho ko'makchi, ularni shaxs sifatida shakllantirish, shuningdek, nafaqat o'z hayoti bilan balki yuzlab insonlar tajribasi bilan yashashga o'rgatadi, yosh avlodni buzg'unchilikka emas, aksincha bunyodkorlikka undaydi.

Muzey – bu uzoq va yaqin o'tmishdan darak beruvchi maskan, ayni paytda katta jonli, tabiiy, ko'rgazmali ashyolar bilan tarbiyaviy quvvatga ega bo'lgan darsxona – ta'lim-tarbiya o'chog'i.

Muzeylar faoliyatini ta'lim-tarbiyaga yo'naltirish XX asr boshlarida Germaniyada boshlangan, A. Lixtvark, A. Reyxven va R. Froydental kabi olimlar ta'lim jarayonida muzeylar faoliyatining yangi yo'nalishini pedagogika, muzeyshunoslik va psixologiyaning o'zaro uyg'unligi natijasida muzey pedagogikasi tushunchasini olib kirishgan.

Y. K. Frizenning fikriga ko'ra, muzey pedagogikasi bu ma'rifiy ishlar va muzey didaktikasiga tayanadigan, muzey vositalari bilan badiiy tarbiyaning an'anasi hisoblanadi.

R. Froydental birinchi bo'lib muzeylarda maktab tizimidagi mashg'ulotlar o'tkazish metodikasini yaratadi. Bundan tashqari o'quvchilar bilan muzey ta'lim jarayonini tashkil etishga tayyor bo'lgan mutaxassislarni muzey pedagogi deb ham atagan.

Muzey pedagogi – pedagogik mahoratga ega bo'lgan va badiiy ijod psixologiyasida chuqur bilimga ega bo'lgan, ko'plab faktlarni biladigan, sinfda va muzey muhitida qanday ishlash kerakligini biladigan mutaxassis¹.

1991-yilda muzeylarning veb sayt shakli ham ishlab chiqildi. Ularning asosi an'anaviy muzeylar hisoblanadi. Internet tarmog'ida axborotlar tezlikda almashishi natijasida shaxsiy virtual muzeylar ham yaratildi. Bunga misol qilib, 1994-yilda yaratilgan "Onlayn-Luvr" virtual muzeyini olishimiz mumkin.

¹Столяров Б. А. Педагогика художественного музея: от истоков до современности. – Санкт-Петербург: Специальная литература, 1999. – С. 5.

Ma'lumki, virtual muzeylarning kommunikativ, madaniy-ma'rifiy, ta'limiy va motivatsion funksiyalari mavjud.

Virtual muzeylardan virtual ekskursiya, tanlovlar va turli tadbirlar o'tkazish maqsadida foydalanish mumkin.

Virtual-ta'limiy muzey muzeydagi san'at obyektlarini, tarixiy asarlarni, virtual to'plamlar va ekspонатlarini namoyish etish hamda shu muhitda ta'lim jarayonini tashkil etishga mo'ljallangan veb sayt turidir. Veb texnologiyalar asosida tashkil etilgan muzey odatiy muzeylardagi obyektlarni saqlash, xavfsizlik va boshqa kamchiliklarni hal qilish imkoniyatiga ega.

A. Budko fikricha, muzeylarni modernizatsiyalashda yangi loyihalar yaratish, muzeylararo xalqaro ahamiyatini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Muzeylarni modernizatsiyalash konseptual strukturaviy va texnologik o'zgarishlar tizimi bo'lib, muzeylarni mavjud hayotiy oqim va kelajak bilan ta'minlaydi².

D. Filonov fikricha, har bir virtual muzey o'z qarashlaridan kelib chiqqan holda, multimedia kontenti loyihalarini ishlab chiqish va bu yangi loyiha tomoshabinlar hamda muzey xodimlari uchun keng imkoniyatlar yaratishi zarurdir³.

Virtual-ta'limiy muzeylar yaratishda quyidagi vazifalar hal qilinishi kerak:

- kerakli axborotlarni saralash (muzey ekspонатlari va materiallar);
- muzey fondini shakllantirish tamoyilini ishlab chiqish;
- boshqaruv tuzilmasini yaratish;
- ekspонатlar va ma'lumotlarni taqdim etish, kataloglarni tartiblash axborot strukturasi ishlab chiqish;
- ma'lumotlar bazasini axborotlar bilan to'ldirish;
- ma'lumotlarni saqlash va namoyish etish tizimi loyihasini ishlab chiqish;

²Будко А. Модернизация. // Схематизация опыта. – Москва: Мир музея, 2010. – №12 (280). - С. 50-51.

http://museumstudy.ru/wp-content/uploads/2015/12/budko_modernizacia.pdf

³Филонов Д. Компьютерная эра в музее. – Москва: Мир музея, 2009. – №5. – С. 261.

- tarmoqda barqaror va uzluksiz ishlash imkonini beruvchi axborot tizimini ishlab chiqish.
- virtual-ta’limiy muzeylar muntazam ravishda ishlashi uchun:
- tizimdagi barcha havolalar barqaror ishlashi;
- tizimning ba’zi havolalari ishlamay qolgan taqdirda, qolgan havolalarga ta’sir ko’rsatmasligi;
- tizimda “axborotlar joylashuvining shaffofligi” xususiyatiga ega bo’lishligi zarur. Foydalanuvchilar kerakli axborotlar manbai joylashuvi haqida bilishi shart emas⁴.

Hozirgi kunda bunday tizimni yaratish imkonini beruvchi internet tarmog’i mavjud. Bu turli xil ko’rinishdagi axborotlardan tarmoqda foydalanishning eng samarali yo’lidir. Bundan tashqari turli xil platformalarda axborotlarni ixtiyoriy masshtablarda ham ishlash imkonini beradi.

Virtual-ta’limiy muzeyning afzallik jihatlaridan biri muzey eksponatlarining virtual panorama usulida joylashtirilganligidir. Bunda eksponatlarni 360^o burchak bo’ylab ko’rish va yaxshiroq anglash mumkin. Bu panorama usuli aylanma panorama deb ham ataladi. Aylanma panoramada obyektlar o’zaro bog’lanishi mumkin. “Faol manzil” belgilanib keyingi eksponatlarni ham ko’rish, kattalashtirish va boshqa axborotlar bilan tanishish mumkin.

Virtual-ta’limiy muzeylarda axborotlarni taqdim etishning keyingi usuli virtual sayohatlardir. Virtual sayohat animatsiyali obyektlar, multimediali eksponatlar va ovozli axborotlardan tashkil topgan bo’ladi.

Ushbu imkoniyat virtual-ta’limiy muzeylar eksponatlari bo’ylab real ishtirok etish imkonini beradi. Barcha obyektlar 3D formatida modellashirilgan bo’ladi. Bu yerda siz atrofingizdagi eksponatlarni diqqat bilan ko’zdan kechirish va o’rganish maqsadida istalgan joyda uzoq vaqtga to’xtashingiz, o’zingiz uchun haqiqatdan ham qiziqarli bo’lgan zallarga bir zumda o’tib olishingiz mumkin.

⁴Дворко Н. И. Режиссура мультимедиа (Генезис, специфика, эстетические принципы): Дисс... д-ра искусствоведения: 17.00.03. — Санкт-Петербург, 2004. — С. 251.

E. V. Aleksandrova fikricha, virtual sayohat o'qituvchining hikoyasini vizual materiallar (fotosuratlar, audio yozuvlar, videofilmlar) orqali yangi bilimlarni ongli ravishda egallash uchun ijobiy motivatsiyani kuchaytiradigan ta'lim shaklidir⁵.

G. N. Akvileva esa virtual sayohatlar o'qitishning tashkiliy shakli bo'lib, haqiqiy muzeylardan farqli ravishda o'qituvchining o'zi kerakli bo'lgan materialni va yo'nalishni tanlaydi hamda belgilangan maqsadlarga muvofiq tarkibni o'zgartirib, virtual namoyishlar orqali bilimlarni egallash imkonini beradi deb ta'riflagan⁶.

Virtual-ta'limiy muzeylar orqali turli sabablarga ko'ra muzeyga borolmaydigan bolalar (nogiron bolalar, viloyat va qishloq maktablari o'quvchilari) uchun estetik tarbiya maskani bo'lib xizmat qiladi va har bir o'quvchini jahon tarixiy va madaniy merosiga erkin kirish uchun barcha sharoitlarni yaratib beradi.

Tadqiqotimiz jarayonida ma'lum bo'ldiki, virtual-ta'limiy muzeylar yodgorlik emas, balki muloqot markazidir, ya'ni har qanday kishiga yangi bilim va ko'nikmalarni shakllantirish imkonini beradi. Tadqiqotimiz doirasida Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti o'zbek tili va adabiyoti fakulteti talabalari o'rtasida virtual-ta'limiy muzeylar afzalliklarini aniqlash maqsadida so'rovnoma o'tkazildi (Mustaqil ta'lim soatlarida talabalar o'qituvchi ishtirokisiz kompyuterda joylashtirilgan virtual-ta'limiy muzeylardan foydalandilar). So'rovnomada 1-bosqichdagi 100 nafar talaba ishtirok etdi. Talabalar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma (anketa) savollariga berilgan javoblarda ular virtual-ta'limiy muzeylarning afzal tomonlarini ko'rsatdilar.

⁵Александрова Е. В. Виртуальная экскурсия как одна из эффективных форм организации учебного процесса на уроке литературы //Литература в школе. – 2010. – №10. – С.22-24. <https://multiurok.ru/files/virtual-naia-ekskursiia-kak-odna-iz-effektivnykh.html>

⁶Аквилева Г. Н., Клепинина З. А. Методика преподавания естествознания в начальной школе. – Москва: ВЛАДОС, 2001. – С. 240.

1-jadval

So'rovnoma savollariga berilgan javoblar jadvali

No	So'rovnoma savollari	Javoblar	Foizlarda
1.	O'quv jarayonida virtual-ta'limiy muzeylardan ko'proq ma'lumot olish mumkinmi?	yo'q	30
		ha	70
2.	Mustaqil ta'lim jarayonida darsliklardan yoki virtual-ta'limiy muzeylardan foydalanish afzalmi?	darslik yordamida	28
		virtual-ta'limiy muzeylar	72
		farqi yo'q	-
3.	Virtual-ta'limiy muzey yordamida o'qitish sizni toliqtiradimi?	yo'q	74
		ha	26
4.	Sizga virtual-ta'limiy muzeylar yordamida tashkil etilgan darslar qanday ta'sir o'tkazdi?	ijobiy	76
		qoniqarli	24
		yomon	-
5.	Virtual-ta'limiy muzey yordamida laboratoriya ishlarini tashkil etish sizga tushunarli bo'ldimi?	ha	85
		yo'q	15
6.	Sizga virtual-ta'limiy muzeylar bilan ishlash ma'qulmi?	ha	80
		yo'q	20
7.	Ma'ruza, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini virtual-ta'limiy muzeylar asosida tashkil qilish, yangi bilimlarni o'zlashtirishingizga qanday ta'sir etdi. Foizlarda bering.	ma'ruza	90
		amaliy	85
		laboratoriya	75

So'rovnoma savollariga berilgan javoblardan ko'rinib turibdiki, talabalarning aksariyati virtual-ta'limiy muzeylardan foydalanib, ta'lim jarayonini tashkil etish ularning mustaqil bilim egallashlari uchun keng imkoniyatlar yaratayotganligini ta'kidlashdi.

Demak, virtual-ta'limiy muzeylar yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, mustaqil fikrlash, voqea va hodisalarga befarq qaramaslik va moddiy-ma'naviy merosimizni asrash tuyg'ularini shakllantirishda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu esa virtual-ta'limiy muzeylarning ta'lim va tarbiya salohiyatiga ega ekanligidan, o'quv jarayonida foydalanish mashg'uotlarning yanada jonli va asosli bo'lishidan dalolat beradi.

MUNDARIJA

**PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA,
PEDAGOGIK INNOVATIKA**

Babaходжаева Лобар

Электронные материалы для
активного обучения.....3

Akramov Mirmuhsin

Inson va tabiat munosabatlari
psixologiyasi xususiyatlarining ilmiy
talqini11

Butayeva Umida

Kasbiy kompetentlik – shaxs kasbiy
yetuklikligining mezoni sifatida.....19

Maxkamova Umida

Nutq kamchiliklariga ega bolalar:
yondashuvlar va tendensiyalar.....27

МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ

Taydjanova Malika

Maktabgacha yoshdagi bolalarning
emotsional sohasi va undagi
buzilishlar muammosining tahlili
(xorijiy nazariyalar misolida)32

**МАТЕМАТИКА ВА ТАБИИЙ-ILMIY
FANLAR TA'LIMI**

Abdurahmanova Iqbolxon

Biologiyani o'qitishda iqtidorli
o'quvchilar bilan ishlash tizimini
takomillashtirish.....38

Umaraliyeva Mamuraxon

Pedagogik taksonomiyaga asoslangan
o'quv topshiriqlari – o'quvchilarda
kompetensiyalarni tarkib toptirish
vositasi sifatida.....47

Qurbonazarov Ilxom

Talabalarning mustaqil ta'lim olish
jarayonida ommaviy onlayn ochiq
kurslaridan oydalanish.....54

Dadaboyeva Feruzaxon

Fizika va astronomiyani o'qitishda
integratsiya – ta'limni
gumanitarlashtirishning vositasi
(nazariy aspekt)61

Abdurashidov Adhamjon

Milliy hunarmandchilik vositasida
talabalarda tadbirkorlik ko'nikmalarini
rivojlantirish68

Safarov Abdimurot

Fizika va harbiy maxsus fanlarning
fanlararo bog'lanishlari.....74

Nazarov Ilhom,

Payazov Mirabbos

Ta'lim jarayonida lokal va global
tarmoqlararo axborotlar almashuvida
nutq signallarining aniqlilik darajasini
o'rganish84

**IJTIMOIY VA GUMANITAR FANLAR
TA'LIMI**

Atamuratov Rasuljon

Virtual muzeylarning ta'lim jarayonidagi
o'rni.....92

Mamarajabova Zulfiya

Adabiy ta'lim jarayonida zaif eshituvchi
o'quvchilar nutqini rivojlantirish.....98

**SAN'AT VA JISMONIY
MADANIYAT TA'LIMI**

Хасанов Отабек

Формирование тренировочного
мотива у юных футболистов
нетрадиционным методом.....106

FAN VA TA'LIM FIDOYILARI

Madirimov Mamatsoli,

Raximov Ikrom

Ustozning ma'rifat yo'li.....113